

## CHET TILINI O'RGANISHDA GRAMMATIK KO'NIKMALAR

*Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar*

*Muallif: Turayeva Shaxzoda*

*Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Har qanday tilni o'rganishdan avval undagi grammatik tushunchalarni chuqur anglash kerak, chunki grammatik ko'nikmalarsiz gapirish ham, o'qish ham, yozish ham qiyinchilik tug'diradi. Grammatika bu har bir tilning tayanchi hisoblanadi. Grammatika fan sifatida ham chuqur shakllangan va tilshunoslikning bo'limlari tarkibiga kiradi. Xususan, chet tillarini o'rganishda grammatika muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** chet tili, metodika, grammatika, reseptiv grammatika, artikl, predlog, rod, grammatik shakl, grammatik ma'no, induktiv usul, deduktiv usul, leksik usul, modellar usuli.

Ma'lumki, Grammatik qonuniyatlar asosidan so'zlardan so'z birikmalari va jumlalar tashkil qilinadi. Bu nutqning tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Grammatika atamasi quyidagi ma'nolarni ifodalaydi;

1. Tilning grammatik ko'rinishini;
2. Tilning grammatik ko'rishi haqidagi fanni;
3. Amaliy grammatikani; ya'ni konkret tilga oid bo'lgan grammatik qoidalar, grammatik hodisalarining tavsifi, grammatik ko'nikma va malakalar [4,98-102].

Hozirgi kunda grammatikaga oid bilim, ko'nikma va malakalarning chet tillarni egallahdag'i rolini hech kim inkor etmaydi. Grammatik shakl va tuzilmalarni ma'nosini anglamay turib nutqni tinglab yoki matnni o'qib tushunish mumkin emas. Ularni qo'llashni bilmasdan turib, o'z fikrini shakllantirish, og'zaki yoki yozma bayon qilishni tasavvur qilish ham qiyin. Grammatik ko'nikmalar morfologik va sintaktik ko'nikmalarga ajratiladi.

Morfologik ko'nikmalarga og'zaki nutqda artikl qo'shimchalar, sifat fe'l, olmosh va boshqa turkumlarni gaplarda to'g'ri qo'llash tushuniladi. Chet tili ta'limida sarflanadigan nutqning va talablarning chegaralanganligi grammatik materialni tanlab olish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Har qanday chet tilini o'rganayotgan o'quvchilar grammatik minimumni yaxshi tushunishlari kerak. Metodikadagi grammatik minimumni ikki guruhga ajratishadi. Birinchi guruhga nutq faoliyatini tinglab tushunish va o'qish turlariga xos bo'lgan grammatik hodisalar kiradi, ular esa reseptiv grammatik minimum deyiladi. Ikkinci guruhga nutq faoliyatining Grammatik shakl bilan reproduktiv Grammatik minimum doirasidagi so'zlarning konkret guruhi o'rtasida yanada yaqinroq aloqa o'rnatish imkonini beradi. Ona tili va chet tili Grammatik hodisalarining ma'nosini va qo'llanilishini taqqoslash asosida quyidagi Grammatik hodisalarni farqlash mumkin.

1. Ma'no va qo'llanish jihatidan ikkala tilda ham mos keladigan Grammatik hodisalar masalan, sifat darajalarida.
2. Ma'no, hajm va qo'llanishi jihatdan ona ava chet tillarida mos kelmaydigan Grammatik hodisalar, masalan, so'z tartibi, fe'lning hozirgi zamoda tuslanishi, otlarning turlanishi.
3. Fakt chet tiliga xos bo'lgan Grammatik hodisalar, masalan, artikl, predlog, grammatika, rod.
4. Ona tiliga xos bo'lмаган Grammatik hodisalar [2,34].

Chet tilida Grammatik materiallarni to'g'ri tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki to'g'ri tanlangan materiallar bilan o'rganuvchilar yaxshi mashg'ulotga va yaxshi natijaga erisha oladilar. Chet tiliga Grammatik materialni 4 xil usul bilan taqdim etish mumkin, 1) induktiv usul, 2) deduktiv usul, 3) leksik usul, 4) modellar usuli. Har qanday soxada bo'lgani kabi grammatikada ham bazi qiyinchiliklar bo'lishi mumkin, aynan ular morfologiya va sintaksis bo'limlariga oid bolishi mumkin. Masalan, grammatik omonomiya ham tinglab tushunish jarayonida qiyinchilik tug'diradi. Tinglab tushunish jarayonining natijasi tinglovchining matn

mazmunini tushunganligi yoki tushunmaganligi hisoblanadi. Jumlalarni tushunish asosan jumlaning sintaktik xususiyatiga bog'liq. Asosiy qiyinchilikni qo'shma gaplarni mantiqiy-grammatik strukturasini tushunishni talab qiladi. Grammatikaga tarixda turlicha munosabatda bo'lganlar. Masalan, grammatik tarjima metodi tarafidori til o'rganish deganda asosan grammatikani egallashni tushunganlar. Grammatika ma'lum tizim va qoidalar asosida o'rganilgan.

O'rganilayotgan til grammatikasini o'zlashtirish nazariy, amaliy va umumta'lim ahamiyatga ega. Chet tili grammatikasini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar ona tillariga xos bo'lмаган lingvistik hodisalarga uchraydilar, yangi Grammatik hodisakarni o'zlashtirib oladilar. Chet tili grammatikasini o'rganish o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi, kuzatuvchanlik, tahlil qilish qobiliyatini o'stiradi va xotira hajmini kengaytiradi. Qisaqa qilib aytganda, grammatikani o'rganish chet tilini egallahni yengillashtiradi va tezlashtiradi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. DJumali Shabany, "Chet tilini o'qitish metodikasi va zamonaviytexnologiyalari" Toshkent-2009.
2. K. Jurayev, "Ifodali o'qish va hikoya qilish" O'qituvchi-1968. 34-bet.
3. Yo'ldoshev J. G', Usmonov S.A, "Pedagogik texnalogiya asoslari" O'qituvchi-2004y.
4. Hasanboy Rasulov "Ingliz tili grammatikasi" 2019-y. 98-102-betlar.
5. Zoirova. D. "Nazariy va fonetika maruza matni" 2016-y.